

## RAQAMLASHTIRISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

*Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi,*

*Abdualiyeva Gulzada Azatovna,*

*Abdiyeva Nilufar Shoyim qizi*

*O'zbekiston Milliy Universiteti 4-talabalari,*

*O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti,*

*Gmail:makhmudovazokhida@gmail.com*

*Gmail:abdualiyevagulzada@gmail.com*

*Gmail:nilufarabdiyeva8@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayonining mohiyati, uning iqtisodiyotga ta'siri, afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan. Raqamli va an'anaviy iqtisodiyot o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilingan. Raqamlashtirishning ishchi kuchi malakasi, infratuzilma, qonunchilik, biznes modellariga ta'siri o'rganilgan. Raqamlashtirishning samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, innovatsiyalarni tezlashtirish kabi afzalliklari, shuningdek kiberxavfsizlik, texnologik qaramlik, raqamli tafovut kabi kamchiliklari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, an'anaviy iqtisodiyot, innovatsiya, samaradorlik, kiberxavfsizlik, raqamli tafovut, texnologik qaramlik.

### ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ЦИФРОВИЗАЦИИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается природа процесса цифровизации, его влияние на экономику, преимущества и недостатки. Анализируются основные различия между цифровой и традиционной экономикой. Изучено влияние цифровизации на навыки рабочей силы, инфраструктуру, законодательство и бизнес-модели. Выделены преимущества цифровизации, такие как повышение эффективности, снижение затрат и ускорение инноваций, а также недостатки, такие как кибербезопасность, технологическая зависимость и цифровой разрыв.

**Ключевые слова:** цифровизация, цифровая экономика, традиционная экономика, инновации, эффективность, кибербезопасность, цифровой разрыв, технологическая зависимость.

### ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF DIGITIZATION

**Annotation.** This article examines the nature of the digitization process, its impact on the economy, advantages and disadvantages. The main differences between digital and traditional economies are analyzed. The effect of digitization on workforce skills, infrastructure, legislation, and business models has been studied. The advantages of digitization, such as increasing efficiency, reducing costs, and accelerating

innovation, as well as disadvantages such as cyber security, technological dependence, and the digital divide, are highlighted.

**Keywords:** digitization, digital economy, traditional economy, innovation, efficiency, cyber security, digital divide, technological dependence.

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlari orqali iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi yangi iqtisodiy model sifatida shakllandi. Bu iqtisodiyot turi, asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishga qaratilgan.

Raqamlashtirish jarayoni – bu axborotlarni raqamli formatga o'tkazish va ulardan samarali foydalanish imkonini beruvchi jarayon sifatida ta'riflanadi. Ushbu jarayon turli xil sohalarda, jumladan, savdo, sanoat, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda joriy etilishi mumkin.

An'anaviy va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat bo'lib:

#### 1. Texnologiyalardan foydalanish:

•**Raqamli iqtisodiyot:** Internet, mobil texnologiyalar, sun'iy intellekt va raqamli platformalarga asoslanadi. Uskunalar, dasturlar, va raqamli tizimlar yordamida ishlar amalga oshiriladi.

•**An'anaviy iqtisodiyot:** Asosan jismoniy resurslar va oddiy texnologiyalar, qo'lda mehnat va an'anaviy ishlab chiqarish usullariga tayanadi.

#### 2. Tezlik va samaradorlik:

•**Raqamli iqtisodiyot:** Jarayonlar tezroq va samaraliroq amalga oshiriladi. Ma'lumotlar oqimi, avtomatlashtirish va real vaqtli tahlillar yordamida ishlar tezlikda bitadi.

•**An'anaviy iqtisodiyot:** Ishlab chiqarish va xizmatlar sekinroq amalga oshiriladi, ko'p hollarda inson omiliga bog'liq bo'lib, jarayonlar vaqt talab etadi.

#### 3. Ma'lumotlardan foydalanish:

•**Raqamli iqtisodiyot:** Katta hajmdagi ma'lumotlar yig'iladi va tahlil qilinadi. Ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, bozor tendensiyalarini aniqlash va strategiyalarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

•**An'anaviy iqtisodiyot:** Ma'lumotlardan foydalanish cheklangan va ko'pincha qog'oz hujjatlar yoki oddiy tizimlar bilan chegaralangan.

#### 4. Globallashuv:

•**Raqamli iqtisodiyot:** Global miqyosda faoliyat yuritish imkoniyatini oshiradi. Kompaniyalar internet orqali xalqaro bozorlarga kirib, global xaridorlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega.

• **An'anaviy iqtisodiyot:** Lokal yoki milliy bozorlar bilan cheklangan, chet el bozorlariga kirish qiyinchiliklarga duch keladi.

## 5. Innovatsiya:

• **Raqamli iqtisodiyot:** Innovatsiyalar tezroq amalga oshiriladi va yangi mahsulotlar, xizmatlar tez tarqaladi. Startaplar va texnologik kompaniyalar innovatsiyalarga tez moslashadi.

• **An'anaviy iqtisodiyot:** Innovatsiya jarayoni sekinroq, mahsulot va xizmatlar yangiliklarni qo'llashda ko'proq vaqt talab etadi.

An'anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni zamonaviy iqtisodiy faoliyatning markazi bo'lib, bu o'zgarishlar jamiyatning har bir qismiga ta'sir qiladi. Ushbu jarayon nafaqat texnologiyalar va infratuzilmani, balki ishchi kuchi malakasini, qonunchilikni, biznes modellari va iste'molchi xatti-harakatlarini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar:

### 1. Ishchi kuchi malakasining o'zgarishi:

• **Raqamli ko'nikmalar.** Ishchilar uchun raqamli ko'nikmalar, masalan dasturlash, ma'lumotlar tahlili va raqamli marketing muhim ahamiyat kasb etmoqda.

• **Uzluksiz ta'lim.** Ishchilarning doimiy ravishda o'z malakalarini oshirishlari va yangi ko'nikmalarni o'rganishlari kerak. Onlayn kurslar va ta'lim platformalari bunda yordam beradi.

• **Yangi kasblar.** Raqamli iqtisodiyot yangi kasb va mutaxassisliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, kiberxavfsizlik mutaxassisi, ma'lumotlar muhandisi.

### 2. Infratuzilmaning o'zgarishi:

• **Bulutli texnologiyalar.** Kompaniyalar va tashkilotlar bulutli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

• **Raqamli to'lov tizimlari.** Raqamli to'lov tizimlari to'lov jarayonlarini soddalashtiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi.

### 3. Qonunchilik va tartibga solish tizimining o'zgarishi:

• **Elektron tijorat qonunlari.** Yangi qonunlar elektron tijorat va raqamli xizmatlarni tartibga solish uchun qabul qilinmoqda. Bunga onlayn savdo, raqamli to'lovlar va iste'molchi huquqlarini himoya qilish kiradi.

• **Ma'lumotlarni himoya qilish.** Ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik qoidalari kuchaytirilmoqda.

• **Intellectual mulk huquqlari.** Intellectual mulk huquqlari va patentlar raqamli mahsulot va xizmatlar uchun muhim bo'lib qolmoqda.

### 4. Biznes modellarning transformatsiyasi:

• **Onlayn savdo va xizmatlar.** Elektron tijorat platformalari va onlayn xizmatlar keng tarqalmoqda. Misol uchun, Amazon, eBay, Alibaba kabi platformalar.

• **Shaxsiylashtirish.** Kompaniyalar shaxsiylashtirilgan mahsulot va xizmatlarni taklif etish uchun ma'lumotlardan foydalanishmoqda.

#### 5. **Iste'molchi xatti-harakatining o'zgarishi:**

• **Onlayn xaridlar.** Iste'molchilar tobora ko'proq onlayn xaridlarni afzal ko'rishmoqda, bu esa chakana savdo tarmog'iga ta'sir o'tkazmoqda.

• **Raqamli to'lovlar.** Raqamli to'lov tizimlari keng tarqalmoqda, iste'molchilarga tez va qulay to'lov imkoniyatini taqdim etmoqda.

• **Ijtimoiy tarmoqlar.** Iste'molchilar ijtimoiy tarmoqlar orqali mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot olishmoqda va tavsiyalarni qabul qilishmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni tashkilotning samaradorligini oshirishdan tortib, xarajatlarni kamaytirish va global bozorga kirish imkoniyatlarini yaratishgacha bo'lgan turli ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Raqamlashtirishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. **Samaradorlik oshadi.** Raqamlashtirish jarayoni avtomatlashtirish, real vaqtlil ma'lumotlar tahlili va jarayonlarni optimallashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Texnologik vositalar yordamida ish jarayonlari tezroq va aniqroq amalga oshiriladi, bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshiradi.

2. **Xarajatlar kamayadi.** Raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali kompaniyalar ko'plab operatsion xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimlar, bulutli xizmatlar va raqamli to'lovlar kabi vositalar yordamida xarajatlarni optimallashtirish va tejash imkoniyati mavjud.

3. **Innovatsiyalar tezlashadi.** Raqamlashtirish innovatsiyalarni yaratish va joriy qilish jarayonini tezlashtiradi. Yangi texnologiyalar, dasturiy ta'minot va raqamli platformalar innovatsiyalarni yanada tezroq amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, bu esa biznes va iqtisodiyotdagi rivojlanishni tezlashtiradi.

4. **Yangi biznes modellari paydo bo'ladi.** Raqamlashtirish yangi biznes modellarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi. Onlayn savdo, platforma iqtisodiyoti va shaxsiylashtirilgan xizmatlar kabi yangi biznes modellaridan foydalanish kompaniyalar va iste'molchilarga yangi imkoniyatlar taqdim etadi.

5. **Global bozorlarga kiirish imkoniyati.** Raqamli texnologiyalar global miqyosda faoliyat yuritishni osonlashtiradi. Kompaniyalar internet orqali xalqaro bozorlarga kirib, global mijozlar bilan aloqalarni o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning bozor ulushini kengaytiradi.

6. **Shaffoflik.** Raqamlashtirish jarayonida ma'lumotlar va jarayonlar shaffofroq bo'ladi. Elektron tizimlar va raqamli platformalar yordamida barcha operatsiyalarni kuzatish va boshqarish osonlashadi, bu esa korxonalar va tashkilotlarning ishonchligini oshiradi.

Raqamlashtirishning afzalliklari bilan bir qatorda, ushbu jarayon bir qator kamchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar va cheklovlar mavjud bo‘lib, ular kiberxavfsizlik, texnologik qaramlik va raqamli tafovut kabi muammolarni o‘z ichiga oladi. Raqamlashtirishning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

**1. Kiberxavfsizlik muammolari.** Raqamlashtirish kiberxavfsizlik xavfini oshiradi. Ma’lumotlar va tizimlarni himoya qilish uchun kuchli xavfsizlik choralarni ko‘rish zarur, aks holda yirik xakerlik hujumlari va ma’lumotlar o‘g‘irlanishi mumkin.

**2. Texnologik qaramlik.** Kompaniyalar va shaxslar texnologik tizimlarga qaram bo‘lib qolishadi. Bu qaramlik texnologiya ishdan chiqishi yoki yangilanishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi.

**3. Raqamli tafovutning kuchayishi.** Raqamlashtirish raqamli tafovutni kuchaytirishi mumkin, ya’ni texnologiyalardan foydalanishda imkoniyatlar va resurslarga ega bo‘lmagan guruhlar va mamlakatlar o‘rtasida tafovutlar oshishi mumkin.

**4. Ishchi o‘rinlarining yo‘qolishi.** Avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar ishchi o‘rinlarini qisqartirishi mumkin. An’anaviy ish o‘rinlari raqamli tizimlar tomonidan almashtirilishi, bu esa ish bilan ta’minlash muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

**5. Ma’lumotlar maxfiyligi bilan bog‘liq muammolar.** Ma’lumotlar maxfiyligini saqlash raqamli iqtisodiyotda katta muammo bo‘lishi mumkin. Shaxsiy ma’lumotlarning noto‘g‘ri ishlatilishi yoki yo‘qolishi maxfiylikni xavf ostiga qo‘yishi mumkin.

**6. Texnologik stress va ijtimoiy muammolar.** Texnologiyalar tezkor rivojlanishi va ularni o‘rganish jarayoni odamlar orasida texnologik stress va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yangi texnologiyalarni o‘rganish va ularga moslashish qiyinchiliklar va stresslarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mamlakatimizda ham raqamlashtirishga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoniga binoan elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Raqamlashtirish jarayoni zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayon ko‘plab afzalliklarga ega bo‘lib, samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish, innovatsiyalarni tezlashtirish va global bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, raqamlashtirish bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi, jumladan kiberxavfsizlik xavfi, texnologik qaramlik, raqamli tafovutning

kuchayishi va ba'zi an'anaviy ish o'rinlarining yo'qolishi. Shu sababli, raqamlashtirishni joriy etishda uning afzalliklari va kamchiliklarini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Bu jarayonda davlat siyosati, ta'lim tizimi va biznes hamjamiyatining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. <https://business.adobe.com/blog/basics/digital-economy#:~:text=The%20differences%20between%20a%20traditional,and%20cash%20versus%20cashless%20payments> What is the digital economy? Definition, importance, and examples
3. <https://www.linkedin.com/pulse/digitalization-what-opportunities-risks-transition-linda-grasso> Digitalization: what are the opportunities and risks of the transition?
4. <https://brittenet.eu/blog-post/digital-transformation-definition-opportunities-and-threats/> Digital transformation - definition, opportunities and threats